



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**VAZIRLAR MAHKAMASI HUZURIDAGI
O‘ZBEK TILINI RIVOJLANTIRISH JAMG‘ARMASI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT
O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI HUZURIDAGI DAVLAT
TILIDA ISH YURITISH ASOSLARINI O‘QITISH VA MALAKA OSHIRISH
MARKAZI**

“DAVLAT TILI TARAQQIYOTI: MUAMMO VA YECHIMLAR”

mavzusidagi V respublika an’anaviy ilmiy-amaliy anjumani

MATERIALLARI

**“BOOKMANY PRINT”
TOSHKENT – 2025**

UO‘K: 494.375

KBK: 81.633.1

D 26

Davlat tili taraqqiyoti: muammo va yechimlar [Matn]: to‘plam / Sh.Sirojiddinov.
– Toshkent: Bookmany print, 2025. – 450 b.

Mazkur to‘plam “Davlat tili taraqqiyoti: muammo va yechimlar” mavzusidagi V respublika an’anaviy ilmiy-amaliy anjumaniga tilshunos olimlar, vazirlik, idoralar, mahalliy ijro etuvchi organlarning davlat tili bo‘yicha maslahatchilari hamda tadqiqotchilar tomonidan yuborilgan materiallardan tashkil topgan. Undagi maqolalarda davlat tilining dolzarb muammolari, ularni hal qilish bo‘yicha takliflar, yechimlar berilgan. To‘plam tilshunoslar, professor-o‘qituvchilar, tadqiqotchilar, magistrlar va talabalar uchun mo‘ljallangan.

(Maqolalarning ilmiy saviyasiga mualliflarning o‘zlari mas’uldirlar).

Mas’ul muharrir:

Sh.Sirojiddinov, filologiya fanlari doktori, akademik

Tahrir hay’ati:

I.Azimov, filologiya fanlari doktori, professor

A.Eminov, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent

B.Jo‘rayeva, filologiya fanlari doktori, professor

M.Abdiyev, filologiya fanlari doktori, professor

F.Bobojonov, filologiya fanlari doktori, dotsent

M.Saparniyozova, filologiya fanlari doktori, dotsent

M.Hakimova, filologiya fanlari doktori, professor

M.Umirzoqova, filologiya fanlari doktori, dotsent

H.Yodgorov, filologiya fanlari nomzodi, dotsent

H.Suyunov, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent

N.Quldashev, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti huzuridagi Davlat tilida ish yuritish asoslarini o‘qitish va malaka oshirish markazi Ilmiy-metodik kengashida nashrga tavsiya etilgan.

ISBN 978-9910-06-774-7

© “Bookmany print” nashriyoti, 2025.

korruptsiya, niqoblangan mazmunlar, soʻzlar maʼnosini buzish yoki ataylab notoʻgʻri talqin qilish holatlarini aniqlash.

3. Mualliflikni aniqlash ekspertizasi

Muallifni aniqlash, mualliflik huquqini isbotlash yoki rad etish, matn qasddan oʻzgartirilganligini aniqlash maqsadida qoʻllaniladi. Bu ekspertiza matn uslubi, imlo, sintaksis, leksika va frazeologiya, stilistika, savodxonlik darajasi, yozish vositasi (qoʻlyozma, bosma, smartfon) kabi mezonlarga asoslanadi. Mutaxassis S. P. Kushneruk taʼkidlaganidek, har bir insonning nutq xatti-harakatlari unga xos individual belgilarga ega boʻlib, ular ekspertizalar orqali aniqlanishi mumkin (Кушнерук, 2011, 25-bet).

Matnni tahlil qilish jarayonida bir qator tilshunoslik xususiyatlari eʼtiborga olinadi. Avvalo, tinish belgilarining ishlatilishi tahlil qilinadi. Bu yerda nafaqat xatoliklar, balki muallifga xos uslubiy oʻziga xosliklar ham aniqlanadi. Shuningdek, imlo darajasi, yaʼni yozuvdagi doimiy va takrorlanuvchi xatoliklar — muhim mezon sifatida xizmat qiladi.

Sintaktik tahlil esa jumla qurilishi, soʻz tartibi, zamonlarning ishlatilishi hamda faollik yoki passivlikning ustuvorligi kabi jihatlarni oʻz ichiga oladi. Bundan tashqari, leksik va frazeologik xususiyatlar – soʻz boyligi, stilistik vositalardan foydalanish, neologizmlar, arxaizmlar va boshqa leksik birliklar orqali muallifning tili oʻrganiladi.

Yakunda stilistik xususiyatlar – matn janri, syujet qurilishi, tasviriy vositalar va ritorik shakllar kabi elementlar yordamida matnning umumiy uslubiy yoʻnalishi aniqlanadi. Aynan ushbu jihatlarning har biri muallifga oid til xususiyatlarini belgilashda, ularning uslubiy portretini yaratishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Sud-lingvistik ekspertizada soʻz maʼnosini aniq belgilash muhimdir. Shu sababli, tilshunos mutaxassislar faqat ishonchli, chuqur tahlilga asoslangan, tilshunoslar tomonidan yaratilgan izohli lugʻatlarga tayanishlari kerak. V. I. Dalning "Tirik buyuk rus tili" lugʻati filologlar uchun qimmatli boʻlishi mumkin, biroq ekspertiza kontekstida yaroqsiz manba hisoblanadi. Mutaxassislar bir necha izohli, sinonimlar, antonimlar, paronimlar va muvofiqlik lugʻatlaridan foydalanib, soʻzning maʼnosi, uslubiy yuklamasi va semantik chegaralarini aniq belgilashi lozim (Баранов, 2018, 254-bet).

Soʻzning maʼnosini aniqlashda **komponent (tarkibiy) tahlil** va **kontekstual tahlil** usullari qoʻllaniladi. Birinchi usulda soʻz semantik jihatdan minimal qismlarga (semalarga) ajratiladi. Ikkinchi usul esa soʻzning matndagi kontekstga qarab qanday maʼnoda ishlatilganligini aniqlashga yordam beradi (Шахобиддинова, 2016, 83-86-bet).

Sud-lingvistik ekspertiza (SLE) – bu yozma yoki ogʻzaki nutq namunalarini lingvistik jihatdan tahlil qilish orqali sud jarayoniga ilmiy asoslangan xulosa taqdim etish jarayonidir (Александров, 2003, 156-bet). Rossiya va boshqa ilgʻor davlatlarda

bu amaliyot yillar davomida rivojlanib kelmoqda va mutaxassis tilshunoslarga ehtiyoj tobora ortib bormoqda.

Sud-lingvistik ekspertizaning metodologik asoslari (vazifalari, aniqlanishi kerak bo'lgan masalalar, metodlar) shakllangan bo'lsa-da, hali ham ayrim noaniqliklar mavjud. Jumladan, O'zbekiston sharoitida Sud-lingvistik ekspertizani qo'llash, uni qonunchilik bilan uyg'unlashtirish, sud-tergov tizimiga integratsiyalash kabi masalalar dolzarb bo'lib qolmoqda.

Sud-lingvistik ekspertiza amaliyotida hamon bir qator muammolar mavjud. A. R. Ratinov XX asrning 80-yillaridayoq quyidagi xatolarni ta'kidlagan edi:

- 1) ekspert fikrining ilmiy asosdan ko'ra shaxsiy mulohazaga tayanganligi;
- 2) metodik jihatdan yetarli izlanish olib borilmaganligi;
- 3) ekspertning vakolatidan chiqib ketishi.

Zamonaviy tadqiqotchilar, xususan M. L. Podkatilina va Y. I. Galyashina, ekstremizmga oid ishlarni ko'rib chiqishda sud-lingvistik ekspertlar tomonidan yo'l qo'yilayotgan jiddiy kamchiliklarga e'tibor qaratgan. Ularning ta'kidlashicha, bunday ishlar bo'yicha o'tkazilgan ekspertizalarda ko'plab xatolar kuzatiladi. Jumladan, protsessual va metodologik talablarning buzilishi, shuningdek shaxsiy fikrning ilmiy tahlil o'rnida keltirilishi eng asosiy muammolardan hisoblanadi. Bundan tashqari, matn va kontekstga havola qilinmasligi, shuningdek ekspert tahlilida foydalanilgan metodlarga asosli havola keltirilmasligi ham ekspertiza xulosasining ishonchliligini pasaytiruvchi omillardan biri sifatida ko'rsatib o'tiladi. Bunday xatolar, o'z navbatida, ekspert xulosasining sudda dalil sifatida qabul qilinishiga shubha uyg'otadi. Hech bo'lmaganda bitta bunday xato ekspert xulosasining ishonchliligi va sudda dalil sifatida foydalanilishi haqida shubha tug'diradi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, sud lingvistikasi sohasi va uning amaliyoti bo'yicha tadqiqotlar olib borish dolzarb ekani yaqqol ko'rinadi. Bugungi kunda SLE nazariyasi va amaliyoti bo'yicha metodologik bo'shliqlar mavjud bo'lib, bu sohada universal yondashuvlar ishlab chiqilmagan. Shunday ekan, mavjud amaliy muammolarga mos, aniq uslub va metodlarni ishlab chiqish zarur. Bu esa SLEning ilmiy maqomini mustahkamlash, sud-tergov organlarining ishonchli qarorlar qabul qilishiga ko'maklashadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

- Александров А.С. (2003). *Введение в судебную лингвистику*. Нижний Новгород: Нижегородская правовая академия.
- Баранов А.Н. (2018). *Лингвистическая экспертиза текста*. Москва.
- Кушнерук С.П. (2011). *Документная лингвистика*. Москва.
- Шахобиддинова Ш.Х. (2016). *Татбиқий тилишунослик тезислари*. Андижон давлат университети. Илмий хабарнома.

KO‘Z SOMATIZMI ISHTIROKIDAGI MAQOLLARNING SEMANTIK XUSUSIYATLARI

Muxlisa Sobirova *

Annotatsiya

Ushbu maqolada somatizm komponentli o‘zbek xalq paremalari tahlilga tortiladi. Somatizm atamasi va uning ma’nosi va tavsifi ochib beriladi. Somatizmlarning jahon tilshunosligidagi tasniflanishi keltiriladi. Ko‘z somatizmi ishtirokidagi maqollarning semantik xususiyatlari ochib beriladi. Paremlar tarkibida kelib, qanday semalarni namoyon etishi ko‘rsatiladi. Qaysi paremik birliklarda yakka o‘zi qo‘llanishi va qanday o‘rinlarda frazeologik ibora tarkibida kelib yangi ma’no kasb etishi ko‘rsatib beriladi.

Kalit so‘zlar: parema, somatizm, ko‘z, frazeologik birlik, sema, metafora, ko‘chma ma’no, semantik maydon, tasniflash, somonim, metafora.

Semantic Features Of Proverbs Involving The “Eye” Somatism

Abstract

This article analyzes Uzbek folk proverbs with a somatism component. The semantic features of proverbs with the participation of eye somatism are revealed. It is shown what semes it represents in the structure of proverbs. It is shown in which paremic units it is used alone and in which places it acquires a new meaning when it is part of a phraseological expression.

Keywords: parema, somatism, eye, phraseological unit, sema, metaphor, figurative meaning

Kirish

Ma’lumki har qanday tilning tasviriy ifodalarga boyligi, bo‘yoqdorligi maqollarda namoyon bo‘ladi. Dono xalqimiz milliy madaniyati, mentaliteti hamda so‘z boyligini maqollar orqali namoyon qiladi. Ajdodlardan avlodlarga o‘tib kelayotgan ko‘p asrlik turmush tarzi aks ettirilgan xalq og‘zaki ijodi namunalari orasida maqollar, matallar alohida o‘rin tutadi

Maqol yoki parema - koinot qonuniyatlarini kuzatish, turmush tajribalariga suyanish asosida chiqarilgan xulosalarni ifodalovchi, xalqning jamiyatga munosabati, ruhiy holati, etik va estetik tuyg‘ulari, ijobiy fazilatlarini mujassamlashtirgan, avloddan avlodga og‘zaki shaklda ko‘chib yuruvchi, ixcham va sodda, qisqa va mazmundor, mantiqiy umumlashma sifatida paydo bo‘lgan hikmatli iboralardir. Maqollar xalqning ijtimoiy-tarixiy, hayotiy-maishiy tajribasi umumlashgan

* Tayanch doktorant. Buxoro davlat universiteti, m.sh.sobirova@buxdu.uz,

badiiy, obrazli mulohazalaridan iborat hikmatli soʻzlardir. Oʻzbek tilida hikmatli iboralarni, umuman, maqol deb atashadi.

Tilshunoslik terminlari lugʻatida ham xuddi shu mazmundagi taʼrifni oʻqiymiz: “Maqol – chuqur maʼnoli, tuzilishi gapga teng, alohiga ritmik-melodik xususiyatlarga ega boʻlgan folklor janri. Maqollarda xalqning koʻp yillik tajribalari, hayot hodisalarining maʼlum bahosi, unga munosabati aks etadi”

Ajdodlarimiz azal-azaldan oʻzining butun hayotini, turmush tarzini, mehnat va mashaqqatlarini, magʻlubiyat va muvaffaqiyatini, rasm-rusumlarini maqol va matallarda, naql va iboralarda aks ettirib keladi.

Inson maqol yoki turgʻun birikmani yaratar ekan, eng avvalo, oʻziga yaqin va tanish boʻlgan birliklardan, soʻzlardan foydalanadi. Masalan tana aʼzolari, oʻzini oʻrab turgan tabiat hodisalari, osmon jismlari va hokazo. Shuning uchun, har bir tilning leksik qatlamida tana aʼzolarining nomlari eng qadimiy birliklar sanaladi va ular paremik birliklar tarkibida faol qoʻllanuvchi nomlar hisoblanadi.

Somatizmlar atamasi fanga tilshunos olim F.Vakk tomonidan olib kirilgan boʻlib, grekchadan tarjima qilinganda, (soma) yaʼni tana degan maʼnoni anglatadi. Somatizm komponentlari yoxud somatik birliklar deganda nafaqat insonning tashqi tana aʼzolarini, balki ichki aʼzolarini ham ifodalovchi leksik birliklar, yaʼni soʻzlar tushuniladi. Ular biologiyada, psixologiyada, falsafada va tibbiyotda ham olimlarning qiziqishiga sabab boʻlgan. Somatik leksika barcha tillarda mavjud va tillarning universal leksik qatlamiga kiradi.

Maʼlumki, dunyodagi barcha odamlar, har qanday millat oʻz tanasining bosh, oyoq, koʻz, quloq va boshqa qismlarini qanday nomlashni biladi. Somatizmlar har qanday insoniyat jamiyatida zarur boʻlgan bir qator tushunchalar va munosabatlarni ifodalaydi, ularsiz inson nutqini tasavvur qilish qiyin. Shuning uchun somatik lugʻat foydalanishning yuqori chastotasi va faol polisemiya bilan ajralib turadi.

Somatik lugʻat – bu doimiy miqdordagi nominatsiya obyektlariga ega boʻlgan va leksik birliklarning maʼlum bir tarkibini belgilash uchun moʻljallangan yaxlit bir tizim.

Somatik paremalarning koʻp qoʻllanilishiga esa mazmunining aktualligi, jonli obrazlarning mavjudligi, xalqchilligi, grammatik qurilishining qulayligi va uslubiy xilma-xilligi ham yordam beradi.

Somatik paremalarda tana aʼzolari nomlarining ishlatilishi ularning vazifalari bilan odam har kuni yuzma-yuz kelishi bilan bogʻliq. Paremalardagi somatizmlarning soni va tematik xilma-xilligi ayrim organlar yoki tana qismlari vazifalarining ahamiyati va muhimlik darajasi bilan bogʻliq.

Somatizmlarni fanga olib kirgan olim F.Vakk ularga quyidagilarni kiritadi: inson va hayvon tana aʼzolarining nomlari, tanadagi suyuqliklar(*qon, limfa*) va tan

bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan *jon, suyak, asab* va boshqa shu kabi uzvlar. Vakk fikricha, somatizmlar 3 ga bo‘linadi:

- 1) inson bilan bog‘liq somatizmlar
- 2) hayvonlarga aloqador somatizmlar
- 3) aralash somatizmlar (ham insonga, ham hayvonga aloqador)

Dunyo tilshunosligida somatizmlar tasnifi borasida ham xilma-xilliklar ko‘zga tashlanadi. Aksariyat ilmiy tadqiqot ishlarida ular quyidagicha guruhlanadi:

- 1) bosh va uning qismlari nomlari
- 2) bo‘yin va tomoq qismi a‘zolari
- 3) osteonimik so‘zlar (suyak va uning qismlari. Bu guruhga, shuningdek, ichki a‘zolar nomlari ham kiritiladi)
- 4) angionimik so‘zlar (tanadagi suyuqliklar: *qon, limfa* kabi)
- 5) sensorimik so‘zlar (sezgi a‘zolari nomlari)

Somatizmlar – til leksik tarkibining muhim qismi bo‘lib, nafaqat insonning jismoniy holati, balki til tashuvchisi tomonidan muayyan madaniy jamoada qabul qilingan til va madaniyat, estetik me‘yorning idrok etilishi haqidagi ma‘lumotlarni o‘zida mujassam etadi. Ular ishtirokidagi ibora va maqollarda har bir xalqning turmush tarzi, madaniyati, urf-odati va dunyoqarashi o‘z aksini topgan bo‘ladi.

Somatizmlar – inson va hayvon tana a‘zolari nomlari ishtirok etgan paremik birliklarni tahlil qilish, ularning leksik-semantik xususiyatlarini o‘rganish bugungi zamonaviy tilshunoslik oldida turgan masalalarni hal etishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Biz quyidagi maqolada ko‘z somatizmi ishtirok etgan paremik birliklarning semantik xususiyatlariga to‘xtalib o‘tamiz.

Asosiy qism.

Ko‘z so‘zi umumturkiy so‘z bo‘lib, tirik mavjudotning ko‘rish a‘zosi. U ko‘p ma’noli so‘z bo‘lib, O‘TIL da uning to‘rt ma’nosi ko‘rsatilgan:

Ko‘z – 1. Tirik mavjudotning ko‘rish a‘zosi.

2. Nazar, nigoh; qarash.

3. Ko‘rish qobiliyati.

4. ko‘chma. Ba‘zi narsalarning biror belgisi bilan ajralib, ko‘zga o‘xshab ketadigan qismi, bo‘lagi.

Ko‘z so‘zi tilimizda paremalarni ham shakllantirishda ishtirok etuvchi so‘z-komponentlardan biri sanaladi.

Bu a‘zo ko‘rish sezgisining lokal a‘zosi bo‘lib, u nafaqat atrof-muhitni idrok qilishda asosiy rol o‘ynaydi, balki inson his-tuyg‘ularini ham o‘zida ifodalay oladigan moddiy a‘zo sanaladi. Inson ko‘zlar orqali tashqi dunyo obyektlari haqidagi deyarli barcha ma‘lumotlarni qabul qiladi. Bundan tashqari ko‘z orqali inson yonidagi